ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№5(5)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 330 sahifa, 22-may, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O‘zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar ........ 10
**Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich**

Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi ........ 13
**Bahromova Muhayyo Imomqul qizi**

Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari ........ 18
**Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li**

Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli ........ 22
**Azimov I. T., Daminova F. A.**

PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari ........ 25
**Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash ........ 28
**Abdunazarov Bobir Normurodovich**

Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish ........ 32
**Jumayeva Ra'no To'ychi qizi**

Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri ........ 36
**Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna**

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati ........ 40
**Sultanova Sahobar Ravshanbekovna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni ........ 43
**G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi**

Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish ........ 47
**Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi**

Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish ........ 51
**Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna**

Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish ........ 55
**Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi**

Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish ........ 58
**Otakishiyeva Gulshanoy Abdulaziz qizi**

Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari ........ 61
**G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi**

Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты ........ 64
**Имамова Хурият Эргаш кизи**

Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ........ 69
**Ergashov Qaxramonjon Asqarovich**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari ........ 76
**G'iyosova Dilovar Orif qizi**

Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi ........ 80
**Qodirov Bobirjon Botirjonovich**

Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari ........ 85
**Manzura Qosmuratova**

Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi ........ 89
A. S. Umarov

Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе ........ 92
Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Исломбек Ильесович

Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik oʻyinlardan foydalanish ........ 97
Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna

Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi ........ 102
Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi

Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari ........ 106
Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon Oʻktamjonovich

Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv ........ 111
Toʻychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi

Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek ........ 117
Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi

Boʻlajak oʻqituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari ........ 122
Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari ........ 126
Haytbayeva S. R.

Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qoʻllab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish imkoniyatlari ........ 131
Kadirova Nigora Saxibjanovna

Boʻlajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari ........ 134
Samiyeva Zuleyxa Uktamovna

Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning kompanentlarining koʻrinishlari ........ 139
Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon oʻgʻli

Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini oʻqitish mazmunini innovatsion rivojlantirish ........ 145
Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashgʻulotlarini tashkil etish texnologiyasi ........ 150
Toshpulatova Aziza Toyirovna

Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari ........ 155
Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin oʻgʻli

Oʻqituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari ........ 159
Begmatov Raximkul Olimovich

Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari ........ 164
Narziyeva Mastura Sunnatovna

Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ........ 168
Kubayeva Mavluda, Poʻlatova Gullola Ravshan qizi

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ........ 173
Qoʻchqorov Nodir Bozorovich

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar ........ 178
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi

Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari ........ 183
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar ........ 187
Begamov Shaxzod Toʻlqin oʻgʻli

Sport bilan shugʻullanishda qoʻl va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari ........ 190
Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili ........ 194
Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi

Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati ........ 198
Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich

Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili ........ 202
Mamatova Muzayyana Batirovna

Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means ........ 205
Omonov Baxtiyor Uktamovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish ........ 208
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna

Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari ........ 212
Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati ........ 216
Dusmetova Maksuda Matnazarovna

Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning illustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari ........ 221
Egamberdiyeva Madina Sharif qizi

Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication ........ 224
Fayziyeva Parvina

Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi ........ 227
Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov

Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi ........ 235
Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba

Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari ........ 238
Kasimova Xulkar Atabayevna

Spheres of Language Use ........ 243
Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi ........ 246
Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari ........ 251
N. Jurayev

Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil ........ 255
Nargiza Ergasheva

Talabalarning dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli ........ 259
Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi

Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) ........ 264
Otabekova Nargiza Avazbek qizi

O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi ........ 269
Rasulova Munojat Akmaljonovna

Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi ........ 273
Safarov Abbos Abdurasul o'g'li

Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori ........ 278
Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati ........ 282
Sultanova Sahobar Ravshanbekovna

Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ........ 285
Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna

Matematika fanini o‘zlashtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ... 289
**Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich**

Pedagogik qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ... 293
**Xoliqova Inobatxon Bo‘ri qizi**

Umumta’lim maktabida elektron axborot-ta’lim resurslari ... 296
**Xolmurodov Shuxrat Okboyevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o‘g‘li**

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit ... 300
**Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi**

Ta’lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko‘rinishlari ... 303
**Xusenova Sadoqat Botirovna**

Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции ... 308
**Джалилова Феруза Намазовна**

Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты ... 312
**Имамова Хурият Эргаш кизи**

Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе ... 317
**Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович**

Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов ... 319
**Рахимходжаева В. С.**

Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета ... 325
**Татьяна Викторовна Половинкина**

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xamzayeva Sunbula Jasurovna
Nizomiy nomidagi O'zMPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijod, ijodiylik va ijodkorlik tushunchalarining nazariy mazmuni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlari yoritilgan hamda boshlang'ich yoshdagi bolalar ongining shakllanishida ijodiy faoliyatning ahamiyati, ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ijodiy qobiliyat, ijodkorlikni shakllantirish, innovatsion yondashuv, motivatsiya, ijodiy muhit.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the theoretical essence of the concepts of creativity, creative thinking, and creative activity. The pedagogical and psychological aspects of developing creative thinking skills in primary school students are highlighted, and the importance of creative activity in shaping the consciousness of children of primary school age is analyzed. Particular attention is paid to the effective use of innovative methods and modern pedagogical technologies in the educational process.

**Key words:** primary education, creative abilities, creativity development, innovative approach, motivation, creative environment.

**Аннотация:** В данной статье на научной основе анализируется теоретическое содержание понятий творчество, креативность и творческая деятельность. Освещаются педагогические и психологические аспекты развития творческого мышления у учащихся начальных классов, а также анализируется значение творческой деятельности в формировании сознания детей младшего школьного возраста. Особое внимание уделяется вопросам эффективного использования инновационных методов и современных педагогических технологий в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** начальное образование, творческие способности, формирование креативности, инновационный подход, мотивация, творческая среда.

## KIRISH

Dunyoda kadrlar tayyorlash sohasidagi siyosat insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni tarbiyalashni nazarda tutadi. Zero, fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish hamda kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi aynan shu jarayonda ro'yobga chiqadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda butun dunyo va mamlakatimiz zamonaviy ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar hamda izlanishlar ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilib, ushbu yo'nalishlar bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3775-son[1] "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi qarorida: "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir", deb alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-

1 https://lex.uz/ru/docs/-3765586

ning 2025-yil 27-maydagi 329-son[2] "Ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham mazkur yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, yoshlarning ijodiy salohiyatini yuksaltirish, iqtidorli avlodni qo'llab-quvvatlash va kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi [1, 2].

Bularning barchasi ta'lim tizimida ijodiy yondashuvni kuchaytirish, shaxsning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish hamda yoshlarning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Shunday ekan, yosh avlodda ijodiy qobiliyatni shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiyadan va faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy-intellektual hamda ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati va fikrlash darajasi faol rivojlanadi.

Qobiliyatlarni shakllantirish haqida so'z borganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshdan boshlab rivojlantirish zarurligi masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim. Psixologlar orasida ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan rivojlantirish kerakligi haqidagi qarash mavjud. Ushbu gipoteza fiziologik tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topgan. Bolaning miyasi ayniqsa tez o'sadi va hayotining dastlabki yillarida faol "pishib" boradi. Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining ortishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlarning shakllanishi mavjud tuzilmalar faoliyatining xilma-xilligi hamda intensivligiga, shuningdek, yangi bog'lanishlarning shakllanishi uchun atrof-muhit tomonidan yaratiladigan rag'batga bevosita bog'liqdir.

Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha yosh davri ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Chunki bu yoshda bolalar nihoyatda izlanuvchan bo'lib, ularda atrofdagi olamni o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori darajada namoyon bo'ladi [5].

Bir qator psixolog va pedagog olimlar – А. В. Петровский, Б. М. Теплов, В. А. Крутецкий, E. G'oziyev, G'. Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizov ta'kidlashlaricha, aynan shu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri hamda his-tuyg'ulari faol rivojlanadi. Mazkur yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatlari bir-biridan farq qilgani sababli, ularning iste'dodi ham turlicha namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishni o'rganishdan avval, bu jarayon qanday tushunchalarga tayanishini aniqlab olish zarur. Ta'lim jarayonida o'quvchining yangi fikr yaratishi, savolga noodatiy yondashishi yoki mustaqil izlanish olib borishi – bularning barchasi muayyan nazariy asosga ega. Shu sababli, avvalo "ijod", "ijodiy", "ijodkorlik" va "ijodiy qobiliyat" tushunchalarining mohiyatini aniqlab olish muhimdir.

O'zbek tilining izohli lug'atida "ijod" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati" [3].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa quyidagicha ta'riflanadi: "Ijod – insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Ijod jarayonida insonning tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi – barcha bilim, tajriba va iste'dodi ishtirok etadi. Ijod dastlab tasavvurda tug'iladi, keyin esa izlanishlar, tahlillar, kuzatuvlar, tajribalar va gipotezalar orqali rivojlanadi; agar natija jamiyat tomonidan e'tirof etilsa, haqiqiy va to'laqonli ijod yuzaga keladi" [4]. Demak, ijod jarayoni har doim izlanish, mavjud tajribadan tashqariga chiqish hamda muammoni yangi usulda hal qila olish qobiliyati bilan bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida esa "ijod" yangi g'oyalarni amalga oshirish, chizish, yozish yoki biror mahsulot yaratishga qaratilgan faoliyatda namoyon bo'ladi. "Ijodiy" tushunchasi esa ijod va yaratuvchilik bilan bog'liq bo'lgan, muayyan sohada faoliyat yurituvchi shaxsning sifatini ifodalaydi. Ya'ni bu insonning yangi g'oyalar yaratishi va yangiliklarni joriy etishga qodirligini anglatadi.

Ijod va ijodiylik tushunchalarining mohiyati hamda turli shakllari ko'rib chiqilgach, endi ijodiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs – ijodkor haqida so'z yuritish mumkin. "Ijodkor" – bu ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, yangi g'oya, asar yoki mahsulot yaratishga qodir shaxsdir. Ijodkorning asosiy xususiyatlaridan biri yangilikka intilish va izlanish qobiliyatidir. U o'z tafakkuri hamda tasavvurini ishga solib, noodatiy yondashuvlar orqali muammolarni hal qiladi. Bu esa ijodiy qobiliyatning eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

---
2 https://www.lex.uz/docs/-7545504

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri – erkinlikdir. Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, bola erkin fikrlay oladigan muhitda uning tasavvuri faollashadi, mustaqil qaror qabul qilishga intilishi kuchayadi hamda noodatiy yechimlar topishga moyilligi ortadi. Har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlari shakllanishi aynan maktab davrida boshlanadi va bu jarayonda o'qituvchi yetakchi o'rin tutadi. U o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ularning qiziqishlarini aniqlashi hamda doimiy ravishda rag'batlantirib borishi ijodiy qobiliyatning tabiiy shakllanishida muhim omil hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun ta'lim dasturlari standart yondashuvlardan ko'ra integrativ va moslashuvchan bo'lishi lozim. Chunki fanlararo aloqadorlikni ta'minlash orqali o'quvchi yangicha yechimlar ishlab chiqadi, bir muammoni hal qilishda bir nechta soha doirasida fikrlashga harakat qiladi. Bu esa kreativ sintezni rivojlantiradi.

O'qituvchi "bilim yetkazuvchi" emas, balki "ijodiy muhit tashkilotchisi" sifatida faoliyat yuritishi zarur. U o'quvchilarni tayyor bilimlarni yodlashga emas, balki muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishga, yangi g'oyalarni ilgari surishga hamda amaliy tajriba asosida o'rganishga yo'naltiradi. Shunday ekan, ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun o'quv dasturlarida erkin fikrlash, muhokama va ijodiy topshiriqlarni bajarish imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Natijada "ijodiy o'quv muhitini yaratish" g'oyasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'zini ifoda etish hamda innovatsion yondashuvni shakllantirishga zamin yaratadi. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishi o'quvchi shaxsining ichki salohiyati bilan tashqi pedagogik muhitning uyg'unlashuvi natijasidir. L. S. Vigotskiyning fikriga ko'ra, ijodiy qobiliyat insonning xayoli va tafakkuri birligidagi ruhiy jarayon bo'lib, bolalarda u o'yin, nutq va taassurotlar orqali rivojlanadi.

Psixolog E. G'oziyev esa ijodiy qobiliyatni quyidagicha ta'riflaydi: "Ijodiy qobiliyat – inson tafakkurining faol harakatdagi shakli bo'lib, ushbu jarayon quyidagi omillar orqali rivojlanadi:

1. Muammoli vaziyatlarda, ya'ni bola tayyor javobni olganda emas, balki mustaqil yechim izlashga majbur bo'lganda;
2. Erkin fikrlash muhiti orqali. E. G'oziyev ta'kidlaydi: "Bolaning psixologik erkinligi – ijodning asosidir";
3. Tasavvur va fantaziyani rivojlantiruvchi faoliyatlar orqali, chunki tasavvur ijodning markaziy komponenti hisoblanadi" [6].

Demak, yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, ijodiy qobiliyatning shakllanishi tashqi muhit, faoliyat va tafakkur jarayonining uzviy birligiga tayanuvchi murakkab psixologik hodisadir.

Bir qator olimlarning ta'kidlashicha, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish quyidagi omillar orqali amalga oshiriladi: ta'lim mazmunining ijodiy yo'nalishda tashkil etilishi (muammoli topshiriqlar, ertak tuzish, yangi yechim izlash); pedagog faoliyatining boshqaruvchi va rag'batlantiruvchi rolida namoyon bo'lishi; o'quv muhitining ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega bo'lishi; natijalarning muntazam tahlil qilinishi va tizimning doimiy takomillashtirib borilishi. Ijodiy qobiliyat shakllanishining nazariy asoslari quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanadi:

1. **Faoliyatli yondashuv** (A. N. Leontev, P. Ya. Galperin) – ijodiy qobiliyat insonning amaliy faoliyati jarayonida rivojlanadi;
2. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** (K. Rodjers, A. Maslou) – ijodiy salohiyat shaxsning ichki ehtiyojlari va o'zini namoyon qilish imkoniyatlariga bog'liq;
3. **Sistema-tahlil yondashuvi** – ijodiy qobiliyat bilish, emotsional va irodaviy jarayonlarning yaxlit tizimi sifatida qaraladi;
4. **Psixologik-pedagogik integratsiya** – ijodiy qobiliyatning shakllanishi ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishi jarayonlarining o'zaro bog'liqligida kechadi.

Ijodiy qobiliyatni shakllantirishda faoliyatli yondashuvning o'rni alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv nuqtai nazaridan ijodiy qobiliyat faqat faol harakat va amaliyot orqali rivojlanadi. O'quvchi aynan tajriba, izlanish, muammoli vaziyatlarni hal etish va yangi g'oyalar yaratish jarayonida ijodiy tafakkurni shakllantiradi. Natijada faoliyatli yondashuv ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asosi sifatida ta'lim jarayonida o'quvchini faol ijodiy shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa ta'lim jarayonida har bir o'quvchini faqat bilim oluvchi sub'ekt sifatida emas, balki yuksak ichki salohiyatga ega, mustaqil rivojlana oladigan shaxs sifatida ko'rishga asoslangan pedagogik konsepsiyadir. Ushbu yondashuv an'anaviy "bilim berish" modelidan farqli ravishda insonni bilim ob'ekti emas, balki rivojlanishning faol sub'ekti sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv o'quvchida mustaqillik, ijodiy tafakkur, intilish va mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ushbu yondashuv ijodiy qobiliyat rivojlanishining muhim ilmiy-nazariy poydevori hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyatni shakllantirishda sistema-tahlil yondashuvi ham muhim ilmiy-metodologik asoslardan biri sanaladi. Ushbu yondashuv pedagogik va psixologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlab, o'quv faoliyatini kompleks tarzda tashkil etishga yordam beradi. Ya'ni ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda nafaqat alohida metod yoki vosita, balki butun ta'lim tizimi – maqsad, mazmun, usul, muhit va natijalar o'rtasidagi uzviylik muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik-pedagogik integratsiya esa insonning ta'lim-tarbiya jarayonidagi shaxsiy, ruhiy va intellektual imkoniyatlarini pedagogik vositalar orqali rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ijodiy qobiliyatni shakllantirishning psixologik-pedagogik integratsiyasi insonning ichki ruhiy imkoniyatlari bilan ta'limiy muhitning o'zaro uyg'unlashuviga asoslanadi [7]. Bu yondashuv o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki yangi g'oyalar yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizini, 2025-yilgacha 20 foizini, 2030-yilga qadar esa 50 foizini zamonaviy maktablarga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi [8].

Qarorda nazarda tutilgan STEAM yo'nalishlari, raqamli ta'lim muhiti va yangilangan dars jarayonlari bolalarda ijodiy qobiliyatning shakllanishi uchun bevosita sharoit yaratadi. Bundan tashqari, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar – klaster usuli, mozaika usuli, "aktiv o'yinlar", "faol mulohaza", loyihalash hamda keys-metod kabi zamonaviy ta'lim usullari katta samara beradi. Ular o'quvchining faolligini oshiradi, jamoaviy fikrlashni, muloqot madaniyatini va ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi.

Shuningdek, ijodiy qobiliyatni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy ijodkorligi, metodik mahorati hamda pedagogik tafakkuri hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchida ijodiy muhit yaratishi, uning kichik g'oyalarini qo'llab-quvvatlashi va xatolarni tahlil qilishda yordam berishi lozim. Chunki ijodiy faoliyatda xatolar inqiroz emas, balki rivojlanish uchun yangi imkoniyat hisoblanadi.

## XULOSA

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – bu kelajak jamiyatining ilmiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga yo'naltirilgan uzluksiz va innovatsion jarayondir. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish ta'limning eng muhim strategik vazifalaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3775-sonli "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risidagi qarori. https://lex.uz/ru/docs/-3765586
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 329-sonli "Ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. https://www.lex.uz/docs/-7545504
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati". Toshkent, 2007-yil.
4. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". I jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Rajabova M.T. "Creative Abilities of Preschool Children and Factors of Their Effective Development". "Support Science" jurnali, 2022-yil.
6. G'oziyev E. "Umumiy psixologiya". Toshkent, 2002-yil.
7. Vigotskiy L.S. "Педагогическая психология". Moskva, 1991-yil.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.